

O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH

Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich

Ma'mun universiteti dotsenti

ORCID: 0000-0001-9736-1731

E-mail: ihiyorshb@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi statistik ma’lumotlar hamda tanlanma kuzatuvlar asosida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining soni, faoliyat yo‘nalishlari va iqtisodiy holati o‘rganilib, ishbilarmonlik muhiti dinamikasining asosiy ko‘rsatkichlari baholangan. Xususan, 2018–2023-yillar davrida kichik korxonalarning iqtisodiy holatini baholash tendensiyalari, sohalar kesimidagi o‘zgarishlar hamda istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan. Tahlil natijalari kichik biznesni rivojlantirish siyosatining samaradorligini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kichik korxonalar, mikrofirma, ishbilarmonlik muhiti, statistik tahlil, tanlanma kuzatuv, hududlar kesimi, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация

В данной статье проведён глубокий анализ уровня экономического развития малых предприятий и микрофирм в Узбекистане на основе статистических данных и выборочных обследований. В ходе исследования определены количество субъектов малого бизнеса, направления их деятельности и экономическое состояние в разрезе регионов, а также оценены динамические изменения показателей деловой среды. В частности, проанализированы тенденции самооценки экономического положения малых предприятий в 2018–2023 годах, изменения по отраслям и перспективные направления развития. Полученные результаты служат важной основой для оценки эффективности государственной политики по развитию малого бизнеса и выработки практических рекомендаций.

Ключевые слова: малое предприятие, микрофирма, деловая среда, статистический анализ, выборочное обследование, региональный разрез, экономическая стабильность.

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the economic development level of small enterprises and microfirms in Uzbekistan based on statistical data and sample surveys. The study identifies the number, activity sectors, and economic conditions of small business entities across regions, and assesses the dynamics of business environment indicators. In particular, it examines trends in the self-assessment of small enterprises' economic status, sectoral changes, and development prospects for the period 2018–2023. The results serve as an important foundation for evaluating the

effectiveness of state policies aimed at small business development and for formulating practical recommendations.

Keywords: small enterprise, microfirm, business environment, statistical analysis, sample survey, regional breakdown, economic stability.

KIRISH

O‘zbekistonda kichik korxonalar va mikrofirmalarning rivojlanishi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirilmoqda hamda mazkur sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yil sayin ortib bormoqda. Kichik korxonalar faoliyatining kengayishi mamlakatda ish o‘rinlari yaratish, yangi tashabbuskor qatlarni shakllantirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilmoqda, kredit resurslariga kirishni osonlashtirish, lizing mexanizmlaridan samarali foydalanish va konsultativ xizmatlar ko‘lamini kengaytirish yo‘lida amaliy choralar ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish va kichik biznes subyektlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda kichik korxonalar va mikrofirmalar rivojlanishining izchil o‘sib borayotgani, mamlakatda o‘zining mustahkam iqtisodiy va ijtimoiy o‘rniga ega bo‘lgan yangi tadbirkorlar sinfining shakllanayotganidan dalolat bermoqda. Kichik biznes subyektlarining faoliyati iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va hududiy rivojlanishni rag‘batlantirishning kuchli omiliga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqot O‘zbekistonda kichik korxonalar va mikrofirmalarning rivojlanganlik darajasini statistik jihatdan baholash hamda bu sektorning yanada samarali rivojlanishi uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun-mohiyati, uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, P. Druker [2] fikricha, tadbirkorlik — innovatsiyani boshqarish jarayoni bo‘lib, texnologiyalar o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. U global masala sifatida “tadbirkorlik jamiyati” g‘oyasini ilgari suradi va uqtiradi: qayerda barqaror va normal holat bo‘lsa, aynan o‘sha yerda innovatsiya va tadbirkorlik rivojlanadi, deb hisoblaydi.

Ingliz professori A. Xoskin esa “ishni o‘z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug‘ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta’minlanish uchun shaxsiy javobgarlikka ega, qarorni mustaqil qabul qiluvchi shaxs — yakka tartibdagi tadbirkor bo‘ladi” [3], — deb izohlaydi.

Rus iqtisodchi olimlaridan F. I. Shaxmalovning fikricha, “tadbirkorlik — mustaqil iqtisodiy faoliyat bo‘lib, u investitsiya va xavf-xatar bilan bog‘liq holda foyda yoki boshqa qo‘shimcha daromad olishga yo‘naltiriladi” [4], — deb ta‘riflaydi.

Mamlakatimizda iqtisodchi olimlardan M. S. Qosimova, Sh. J. Ergashxodjayeva, A. N. Samadov, I. B. Sharipov [5] kabi iqtisodchilarning mulohazalariga ko‘ra, “tadbirkorlik — bu iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo‘lib, uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik g‘oyasiga asoslangan, foyda olishga yo‘naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyat yotadi”. Professor B. Xodiev [6] “tadbirkorlik — bu iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo‘lib, uning asosida mustaqil tashabbus, javobgarlik, yangilik kiritish va foyda olishga yo‘naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyat yotadi” — deb ta‘riflaydi.

Iqtisodchi Q. Sharipov [7] esa kichik biznes faoliyatining tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv jarayonlarini tadqiq etgan. Shuningdek, D. Meyliyeva [8] kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq jarayonlarini o‘rgangan. Bundan tashqari, Respublikamizdagi bir qator olimlarning ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumnazariy asoslari, hududlar va tarmoqlardagi muammolar, infratuzilma obyektlarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan [9], [10], [11], [12].

Shu sababli, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari hisoblangan kichik korxonalar va mikrofirmalarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholash, ularning viloyatlar kesimidagi holatini tahlil qilish hamda umumiy iqtisodiy jarayondagi o‘zgarishlarni o‘rganishga zarurat tug‘ilmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari hamda qarorlari tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqotga oid qarashlar va fikrlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya usullari keng qo‘llanilgan. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlarini tahlil qilishda statistik ma‘lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil va tanlama kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, turmush darajasi va sifatini ko‘tarish kun tartibida turgan muhim masalaga aylangan. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini ta‘minlashning muhim manbalaridan biri sifatida tadbirkorlik, xususan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tadbirkorlar o‘rtasida ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash imkonini bermoqda.

O‘zbekistonda 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami 417 080 tani tashkil etdi, shundan yangi tashkil etilganlari 86


030 tani tashkil etadi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko‘pi Toshkent shahrida — 87 458 ta bo‘lib, umumiy sonning 21,0 % ini, Toshkent viloyatida — 38 953 ta yoki 9,3 % ini va Samarqand viloyatida — 37 398 ta yoki 9,0 % ini tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Hududlar bo‘yicha 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlikda[12]

| Hududlar | Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik | Jamiga nisbatan, %da |
|---------------------------------|--|----------------------|
| O‘zbekiston Respublikasi | 417,1 | 100,0 |
| Toshkent shahri | 87,5 | 21,0 |
| Toshkent viloyati | 39,0 | 9,4 |
| Samarqand | 37,4 | 9,0 |
| Farg‘ona | 36,2 | 8,7 |
| Qashqadaryo | 28,0 | 6,7 |
| Buxoro | 27,6 | 6,6 |
| Andijon | 24,4 | 5,8 |
| Xorazm | 23,9 | 5,7 |
| Namangan | 23,1 | 5,5 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 22,1 | 5,3 |
| Surxondaryo | 20,6 | 4,9 |
| Navoiy | 19,5 | 4,7 |
| Jizzax | 16,7 | 4,0 |
| Sirdaryo | 11,2 | 2,7 |

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlariga ko‘ra, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholaganlar soni 2018-yilda 18 804 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 30 327 taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan 11 523 taga oshgan (1-rasm).




1-rasm. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlili¹

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilda 37,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 37,8 % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan 0,6 % birlikka oshganligini ko'rish mumkin.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilda 55,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 54,7 % ni tashkil qilgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi 2018-yilda 7,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 7,5 % ga yetgan yoki 0,4 % ga oshganligini anglatadi (2-rasm).



2-rasm. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018-2023-yillarda umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha),¹ % da

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholaganlar soni 2018-yilda 35 320 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 40 658 taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan 5 338 taga oshgan (3-rasm).

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari



3-rasm. 2018-2023-yillarda kichik korxonalar va mikrofirmalar umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli), birlikda¹

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarimaydi deb baholagan korxonalar soni 2018-yilda 14 318 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 37 019 taga yetib, 22 701 taga oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar soni 2018-yilda 938 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 2 612 taga yetgan, ya'ni 1 674 taga oshgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyati ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini doimo qidirishni talab qiladi. Aks holda, korxonaning qat'iy raqobat muhitida omon qolishi qiyinlashadi. Bu ayniqsa, kichik korxonalar va mikrofirmalarga tegishli bo'lib, ularning vujudga kelishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida qiyinchiliklar hamda hal qilinmagan muammolar tez-tez uchraydi.

Xususan, kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, ularning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholaganlar ulushi 2018-yilda 69,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 50,6 % ga yetgan, ya'ni 2018-yilga nisbatan 19,2 % ga kamaygan.

2023-yilning IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Ushbu so'rovdan 19 075 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 7 291 tasi (38,2 %) iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholadi, 10 369 tasi (54,4 %) iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholadi. Qolgan 1 415 tasi (7,4 %) esa iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo sohasida – 40,1 % (7 654 ta), xizmatlar sohasida – 30,9 % (5 891 ta), sanoatda – 14,9 % (2 833 ta), qurilishda – 7,9 % (1 502 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,3 % (1 195 ta) ni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

2023-yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi¹

| Tarmoq va sohalar | Soni, ming birlik | Ulushi, % da |
|-------------------|-------------------|--------------|
| Qishloq xo'jaligi | 1,2 | 6,3 |
| Qurilish | 1,5 | 7,9 |
| Sanoat | 2,8 | 14,9 |
| Xizmatlar | 5,9 | 30,9 |
| Savdo | 7,7 | 40,1 |

2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini yaxshilanadi deb baholaganlar ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: qurilishda – 51,3 %, savdoda – 50,2 % va sanoatda – 49,8 % ni tashkil etgan (4-rasm).



4-rasm. 2023-yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash,² % da

Shuningdek, yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushining eng ko'p qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 48,7 %, xizmatlar sohasida – 47,4 % va sanoatda – 46,5 % ni

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

tashkil etdi. Yaqin uch oydagı o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb baholagan korxonalar ulushining eng ko‘p qismi sanoatda – 3,7 %, xizmatlar sohasida – 3,7 % va qurilishda – 3,5 % ni tashkil etgan.

Mazkur kuzatuv tadqiqotlari natijalari faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari faoliyatini o‘rganish, yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash hamda erishilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni anglab olishga yordam beradi. Shunday qilib, kichik korxonalar va mikrofirmalarning samaradorligini oshirish uchun korxonalar, avvalo, bozor tadqiqotlariga asoslanib faoliyat yuritishlari, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqobat muhitida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda ularning salohiyatidan to‘liq foydalanish, kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni rag‘batlantirishga qaratilgan yangi tizim ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga davlat organlari, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning noqonuniy aralashuviga qat‘iy chek qo‘yish kichik korxonalar va mikrofirmalarning moliyaviy jihatdan sog‘lomlashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-366 son qarori 15.11.2023
2. Друкер П. Рынок: как выйти в дилеры. Практика и принципы. – М.: 2009. с. 98.
3. А.Хоскин. Курс предпринимательства. М., 1993, 23-бет.
4. Шахмалов Ф.И. Взаимодействие предпринимательских и властных структур: вопросы теории и практики. Автореферат диссертации доктора экономических наук. Санкт-Петербург. 1998. С. 34.
5. M.S.Qosimova, Sh.J. Ergashxodjayeva, A.N. Samadov, I.B.Sharipov. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2010, – 256bet.
6. Xodiev B.Yu. O‘zbekiston iqtisodida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellari. 08.00.06 – “Ekonometrika va statistika” ixtisosligi bo‘yicha iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.T.: 2000. 42-b.
7. Q.B. Sharipov O‘zbekistonda kichik biznes faoliyatida tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv jaraenlari // “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnali. – № 2(132), 2019. 32-38-b. (08.00.00; №18)
8. D.Meyliyeva Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. №6, 2024.

9. A.N. Samadov Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini oshirishni ekonometrik modellashtirish va prognozlash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, 2023-yil

10. G‘afurov U.V., Sharipov Q.B. Tadbirkorlik asoslari. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi uchun darslik. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018, – 144 b.

11. A.Mardonov Kichik biznes rivoji – ertangi kun poydevori. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, 2023-yil

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**